

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

OILA MUSTAHKAMLIGIGA NIKOH MOTIVINING TA'SIRI

Abdullaeva Aropat Rustamovna

Farg'ona Davlat Universiteti, Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Anotatsiya: O'zbek oilasi azaldan sog'lom turmush tarzi, muomala madaniyatini saqlab kelgan. Bu o'z navbatida ota-ona va farzandlar munosabatlarida hamda uy-joyini, ro'zg'orni saranjom tutish, ozodalik tamoyillarini avlodlarga singdirib borishda o'z aksini topgan. Oilaning farzandga o'tkazadigan ta'sir kuchi nixoyatda ulkandir

Kalit so'z: Oila, nikoh, muloqot, dunyoqarash, ota - onalari oilasi, o'zi tug'ilib o'sgan oila, urf-odatlar, er-xotin.

INFLUENCE OF MARRIAGE MOTIF ON FAMILY STRENGTH

Abdullaeva Aropat Rustamovna

Fergana State University, Senior teacher of the Department of Psychology

Annotation: The Uzbek family has maintained a healthy lifestyle and culture of behavior since time immemorial. This, in turn, is reflected in the relationship between parents and children, as well as in keeping the house and household in order, instilling the principles of cleanliness from generation to generation. The influence of the family on the child is enormous

Key word: Family, marriage, communication, worldview, parents' family, family where he was born and raised, traditions, husband and wife.

ВЛИЯНИЕ БРАЧНОГО МОТИВА НА ПРОЧНОСТЬ СЕМЬИ

Абдуллаева Аропат Рустамовна

Ферганский государственный университет старший преподаватель кафедры психологии

Аннотация: Узбекская семья с незапамятных времен сохранила здоровый образ жизни и культуру поведения. Это, в свою очередь, отражается на отношениях между родителями и детьми, а также на содержании дома и хозяйства в порядке, привитии принципов чистоты из поколения в поколение. Влияние семьи на ребенка велико в узбекских семьях.

Ключевые слова: Семья, брак, общение, мировоззрение, семья родителей, семья, в которой он родился и вырос, традиции, муж и жена.

Milliy qadriyatlarning dastlabki nav-nihollari oilada yuzaga keladi, o'sadi va kelgusida o'z mevasini beradi. O'zbek oilasi azaldan sog'lom turmush tarzi, muomala madaniyatini saqlab kelgan. Bu o'z navbatida ota-ona va farzandlar munosabatlarida hamda uy-joyini, ro'zg'orni saranjom tutish, ozodalik tamoyillarini avlodlarga singdirib borishda o'z aksini topgan. Oilaning farzandga o'tkazadigan ta'sir kuchi nixoyatda ulkandir. Har bir oilaning mustahkamligi, oila a'zolarining tinch va farovon hayot kechirishi, o'zaro hurmat va izzatda yashashi bu yoshlarni kelgusi hayotga tayyorlashda muhim omildir.

Avvalo oila qurayotgan yoshlar ma'nan, ruhan, jismonan umuman har tamonlama sog'lom bo'lishlari lozim, chunki sog'lom ota-onadan sog'lom farzand tug'iladi. Oilaviy turmush qurishga tayyorlanayotgan yigit va qizlar anglangan motivlar asosida o'z nikohlarini qurishlari va oilaviy munosabatlarni ijobiy fonda tashkil etish bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lishlari, ular turmush qurishlaridan oldin oila qurish sabablarini to'liq anglab yetishlari, muqaddas nikohni qadriyat sifatida ardoqlashishiga yordam beradi.

Nikoh oldi omillarining asosi ham — shu nikoh qurilishiga sabab bo'lgan nikoh motivlaridir. Ular turlicha talqin qilinsada, asosan sevgi tufayli oila qurish, ya'ni yoshlar oila qurishdan avval bir-birlarini sevib, ma'lum bir muddat sevib-sevilib yurganlaridan so'ng shu o'zaro sevgining mahsuli sifatida bir-birlarining visoliga to'y qilib, oila qurib yetishadilar. SHuningdek, ikkinchi klassifikatsiyasi moddiy yoki o'zga manfaatdorlik tufayli oila qurish. Bunda yoshlar oila qurar ekanlar nimanidir hisobga olgan holda, ma'lum bir maqsadni ko'zlab oila qurishlari mumkin, masalan, boylikni, mansabni, moddiy yoki ijtimoiy manfaatdorlikni ko'zlagan holda o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan qutulish, «yolg'izlikdan qutulish» va boshqalar. Nikoh motivlari klassifikatsiyasidan yana biri — stereotip bo'yicha oila qurish deb ataladi. Bu toifa yoshlarda oldingi motivlarning ikkalasi ham kuzatilmasligi

mumkin. Ular oila qurar ekanlar, stereotiplarga qaraydilar.

Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta'siri noo'rin bo'lsa, u shoshilinch, bo'sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o'rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo'lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, buzilib ketishi xavfini tug'diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, buzilib ketmagani taqdirda ham unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ular doimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda, xijolatda yashashlariga to'g'ri keladi.

Har qanday yigit va qiz oila qurar ekanlar ularda oilaviy hayot haqida ma'lum tushunchalar, dunyoqarash, o'z ota - onalari oilasi, o'zi tug'ilib o'sgan oila, u yerda shakllangan urf - odatlar, an'analarga ko'ra shakllangan bo'ladi. Yangi barpo etilgan oilada esa mutlaqo boshqacha, ya'ni shu oilagacha xos bo'lgan dunyoqarash shakllana boshlaydi. Oila qurgan yoshlarning dunyoqarashi, tushunchalari qanchalik yuqori bo'lsa, ularning bir-biriga moslashishi ham oson bo'ladi.

Oilalar qurishning yana bir motivi – olishdan ko'ra ko'proq berish, ya'ni turmush o'rtoqqa mehr-muhabbat, oilaviy tinchlik, baxt ato etish. Qizlar turmushga chiqar ekan, yigit kishidan himoyani, moddiy ta'minlanishni, farzand ko'rishni istaydi. Erkak kishi ham o'z navbatida oilaviy tinchlik-totuvlik, baxt va hokazolarni xohlaydi. Aslida turmush qurishdan ko'zlangan maqsad, nimagadir ega bo'lmoq ekan, demak buni tushuna oladigan hamda senga shu narsalarni bera oladigan insonni uchratish va u bilan oila qurish lozim bo'ladi.

Yana bir muhim omil – bu oilaviy munosabatlarda to'g'rilik, halollik, poklik hisoblanadi. Oila qurgan er va xotinning munosabatlaridagi to'g'rilik, halollik poklikni ko'rgan, his etgan farzandlar buni o'z hayotlarida tadbiiq etadilar. To'g'rilikni, halollikni inson avvalo o'zidan boshlashi lozim, shundan keyin u donolik va aqllilikka erishadi. Ko'pincha insonlarni yolg'onchilikka, noto'g'rilikka yo'l qo'yishiga ma'lum bir sirni ochilib qolishidan qo'rqish, g'ururini toptalishidan qo'rqish turtki bo'ladi.

Alohida ta'kidlash o'rinliki, oxirgi yillarda oila, nikoh hamda er-xotin munosabatlari muammosi olimlar tomonidan har tomonlama o'rganilib kelinmoqda. Oila muammosi fundamental va amaliy tadqiqotlarning predmeti sifatida turli yo'nalish mutaxassislarini izlanishga jalb etmoqda, jumladan, psixolog, sotsiolog, demograf, jurnalist, iqtisodchi olimlar keyingi vaqtda erta qurilgan nikohlar yoki uning aksi katta yoshlilar o'rtasidagi nikohlar sonining ortib borayotganligini ta'kidlab o'tmoqdalar. Mazkur davrlarda oilada muloqot jarayoning psixologik tomonlariga nikoh yoshi ta'sirining yetarli o'rganilmaganligi mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

Tadqiqotimizni asosiy maqsadi bo'lgan nikoh yoshining oila mustahkamligiga ta'sirini o'rganish va tahlil qilish. SHu maqsadda biz 1 - 15 yilgacha nikoh stajiga ega bo'lgan oilalarda tajriba - sinov ishlarini o'tkazdik va "Siz turmush o'rtog'ingizni yaxshi bilasizmi?" testidan foydalandik.

Turmush o'rtog'ingiz o'zining shaxsiy sirlari haqida sizga gapiradimi?

Siz u kishini qanday rangni yoqtirishini bilasizmi?

Siz umr yo'ldoshingizni ruhiy siqilish holatini (stressni) qanday bararaf qilishni ma'qul ko'rishini bilasizmi?

Turmush o'rtog'ingizni vazni qanchaligini bilasizmi?

Turmush o'rtog'ingizga sizning nimangiz ko'proq yoqishini bilasizmi?

Sizning nimangiz ko'proq u kishini jahlini chiqarishini bilasizmi?

Qaysi taomni yoqtirishini bilasizmi?

Turmush o'rtog'ingizning nozik (zaif) joyi sizga ma'lummi?

Turmush o'rtog'ingiz jamoatchilik faoliyati haqida biron nima bilasizmi?

U kishini nimadan ko'proq qo'rqishini (hayiqishini) bilasizmi?

O'tkazilgan test natijalari tahlil qilinganda ob'ektlarimizning 30% erkaklari va 30% ayollari 40 balldan 50 ballgacha bo'lgan natijaga erishganlar. Test kalitiga (javobiga) binoan respodentlarimiz turmush o'rtoqlarini yaxshi bilishi, bu esa uzoq va baxtli oilaviy hayotning jiddiy asosini tashkil qilishi namoyon bo'ldi. Oila farovonligi, psixologik muhitning sog'lomligi, er - xotinning bir - birlarini yaxshi bilishlari, tushunishlari, hayotiy vaziyatlarda o'z sherigini qo'llab -quvvatlashga so'zsiz bog'liq.

Mazkur oila a'zolarini nikohga kirgan yoshini tahlil qilganimizda ayollarning 60%i 20-25 yoshgacha, erkaklarning 75%i 22-28 yoshgacha bo'lgan davrda nikohdan o'tganlar. Demak, ularning ijobiy ko'rsatkichga erishishlari ilmiy farazimizga muvofiq nikoh yoshiga bog'liqligi aniqlandi. Bizga ma'lumki, inson mazkur davrgacha hayotiy tajribada erishadi. Hayot, oila, nikoh haqida tasavvurga ega bo'ladi. SHu davr oralig'ida yoshlar biron bir kasb - hunar egasi bo'lishi, kelin - kuyovni dunyo qarashini kengaytirishi, oilaning muhim funksiyalaridan biri bo'lgan iqtisodiy funksiyasini mohiyatini tushunib yetadi va o'z oilasida mazkur funksiyani bajaradi. Dunyoqarashning kengligi o'z navbatida

oilaning yana muhim funksiyalaridan biri bo'lgan tarbiyaviy funksiyasini bajarishda qiyinchilik tug'dirmaydi. O'z sherigini yaxshi bilish va tushunish oilada muloqotning samaradorligini ko'rsatadi. Bu esa oilaning kommunikativ funksiyasini bajarishga kiradi. Demak, respodentlarimizning oilalarida psixologik muhitning sog'lomligi oila funksiyalarining ijobiy bajarilishi yosh xususiyatlariga va nikohga psixologik tayyorliklariga bog'liq.

Tadqiqotimizda nikohga kirgan yoshni tahlil qilganimizda 30% ayollar va 25% erkaklar 30 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan davrda nikohdan o'tganlar. Demak, mazkur natija ham ijobiy bo'lib, respodentlarimizning oilalarida osoyishtalik, tinchlik va farovonlik hukm surishi natijalarda namoyon bo'ldi. Natijalartahlil qilinganda, ushbu ko'rsatkich yaxshi bo'lib, turmush o'rtoqlarini yaxshi bilishlari ammo turmush o'rtoqlarining boshqa jihatlarini ham yaxshiroq o'rganishlari kerakligi ta'kidlangan. Ushbu ko'rsatkich egalarining nikohga kirgan yoshlarini o'rganganda 80%i 19-20 yosh ayollar va 75% 24-28 yosh erkaklarni nikohga kirganliklari aniqlandi.

20% ayollar va 25% erkaklar 20 balldan 25 ballgacha nitajaga erishganlar. Ushbu natija respodentlarimiz bir-birlarini yaxshi bilmasliklari aniqlandi. Ularni nikoh yoshi haqidagi fikrlari o'rganilganda 80% ayollar 16-20 yoshni, 35% erkaklar 23-28 yoshni belgilaganlar. Ammo ularning nikoh yoshlari aniqlanganda ayollarning 55%i 16-20 yosh, erkaklarning 40%i 18-22 yosh davrda nikohga kirganliklari, nikoh stajlari 1 yildan 5 yil oralig'ida ekanliklari ma'lum bo'ldi. Bu natija respodentlarimizni oila krizisini boshdan kechirayotganliklari ko'rsatishi tabiiy. Chunki bu vaqt oralig'i kelin – kuyovlarni bir – birlarini o'rganishlari uchun oz davrligini ko'rsatadi.

20% ayollar va erkaklar 20 balldan kam natijaga erishganlar. Ular turmush o'rtoqlarini yaxshi bilmasligi, muloqot usullarining yaxshisini tanlashlari, o'z juftlariga ko'proq qiziqishlari, e'tiborni namoyon qilishlari kerakligi aniqlandi. Yuqoridagi natijalardan farqli o'laroq bu oilalarda kommunikativ funktsiyani yaxshi yo'lga qo'yilmaganligini, bu esa relaksatsiya funktsiyasiga ham yetarli amal qilinmasligi ko'rsatadi. Demak, natijaga ko'ra mazkur oilalardagi erkaklarining oiladagi regulativ funktsiyalarini to'g'ri boshqara olmasliklarini ma'lum bo'ladi. Ushbu natija egalirining nikohga kirgan yoshlari va nikoh stajlari aniqlanganda 10% ayollar 16-20 yoshni, 20% erkaklar 18-22 yoshni belgilagan va 1-5 yilgacha oila stajiga ega ekanlar.

Psixologiya fanida bu boradagi izlanishlar olib borgan oilaviy hayotga psixologik tayyorlikning konkret jabhalarini farqlaydilar. Masalan, rus olimi I. V. Grebennikov yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaydi.

Ijtimoiy jihatdan yetuklik: insonning o'zi yashayotgan jamiyat normalari, hukumat va davltaning oila - nikoh hamda demografiya borasida olib borayotgan siyosatini, nikohning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va rolini, inson hayotidagi turg'un roli va mohiyatini bilgan xolda ongli ravishda turmush qurishga hamda ravfiqalik hamda ota-onalik rollariga ruhan yetilganligini nazarda tutadi.

Aqloqiy va etnik nuqtai nazardan yetuklik shaxsda quyidagi fazilatlarining mavjudligini nazarda tutadi: qarama-qarshi jins vakiliga nisbatan xayrixohlik, ota va onaga, katta va kichikka nisbatan hurmat, farzand tarbiyalashni xohlash hissining borligi; mas'uliyat, sadoqat, bosiqlik, meg'ribonlik, yonbosish, turmush o'rtog'i oldida mas'uliyatni his etish, intim munosabatlarda ichki madaniyatning mavjudligi kabi sifatdir.

Huquqiy madaniyat va yetuklik avvalo oila va nikoh borasidagi mavjud qonunlarni bilish, oila qonunchiligidagi eng muhim normalarga ongli munosabat tufayli turmush o'rtog'i, farzandlari, jamiyat oldidagi huquq va majburiyatlarni his etish va ularga itoat etshga hozirlik ninazara tutadi.

Psixologik yetuklik avvalo shaxsning taraqqiyotiga, jumladan, o'spirinlik va yoshlik davrlariga oid asosiy qonuniyatlarni, shaxslararo munosabatlarning oilaviy o'zaro munosabatlarda qanday namoyon bo'lishiga oid asosiy tamoyillarni bilish, nikoh va oila munosabatlaridagi muomalaga oid nozik tomonlar borasida elementar ko'nikmalarining mavjudligini taqozo etadi.

Fiziologik va gigienik yetuklik erkak va ayol organizmiga xos bo'lgan fiziologik xususiyatlar, ularning jinsiy hayotda namoyon bo'lishi, bunda shaxsiy gigienaning o'rni va ahamiyatiga aloqador bilimlarning sohibi bo'lishdir.

Pedagogik yetuklik umuman oilaning tarbiyalovchi roli, jumladan, farzand tarbiyasi masalalaridagi bilimdonlikni, oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi va bunda ota-onaning tarbiyalovchi missiyasi nimada ekanligi, ota-onalikni tarbiyalovchi madaniy saviyasini oshirish yo'llari to'g'risida aniq bilim va tasavvurlarga ega ekanlikni nazarda tutadi.

Ho'jalik iqtisodiy yetuklik ham o'ta muhim bo'lib, u oila a'zosining oila byudjeti, uni yuritish, er va xotinning maishiy madaniyati, uy xo'jaligini yuritish borasidagi malaka va ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Demak oilaviy munosabatlarning mustaxkamlash shaxslarning nikoh yoshi va nikoh stajiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Т.В.Авдонькина. Мотивы создания семьи и прогнозирование regionsar.ru/node/659
- 2.Алтибаева З. Оила - муқаддас даргоҳ ёхуд никоҳ аҳди етти ўйлаб бир кесишни тақозо этади. Тошкент ш.,2013 йил 14 февраль, УЗА.
- 3.A.R.Abdullayeva //THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 670-674 pages.
4. A.R.Abdullayeva //PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 4, Issue 3. March, 2023. 43-50 pages.
5. Абдулаева Арофат Рустамовна //ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО И МУНИЦИПАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ// UzbekScholarJournal. Volume-06, July, 2022. 26-29 pages.
- 6.А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОИЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION.Vol. 2 No. 13, 2023. 129-133.pages
- 7..Мусурмонова О. Оила маънавияти миллий ғурур. –Тошкент, «Ўқитувчи», 2001 й.-12 б.
- 8...Шоумаров Ғ.Б., Ҳайдаров И.О., ...Оила психологияси.Академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув қўлланма. Учинчи нашр «Шарқ» Тошкент — 2010 й., 120 б.
- 9.Inamova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Diss., ...ped,fan,doktori, -Т., 1998 -316 б.
- 10.Mustahkam oila ma'naviyati. A.Abdusamedov va boshq. Т.: “Sano-standart”, 2012, 160 б.
- 11.Sultonova G. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yo'llari. //Uzluksiz ta'lim. Ilmiy-uslubiy jurnal. –Т.: №3, 50-52 betlar.
- 12.Obidova N. Oila – muqaddas dargoh. //Xalq ta'limi. –Т.: №2, 45-46 betlar.
- 13.Mahmudova M. Yoshlarda oilaviy hayotga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Yoshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. Ilmiy to'plam. 102-108 betlar.